


## 2020-yil 1-yanvar holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

*(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)*

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yilning 1-yanvar holatiga 44266 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25,1 foizga o'sgan. Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 7493 ta (24,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 38523 tani tashkil etgan.




## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 25,4 % savdo, 19,6 % sanoat, 11,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari, 7,9 % dan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar va qurilish, 3,4 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % axborot va aloqa hamda 21,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermervadehqonxo 'jaliklardantashqari)

	<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	01.01.2019 yil	3959 ta
		01.01.2020 yil	4895 ta
	<b>Sanoat</b>	01.01.2019 yil	6846 ta
		01.01.2020 yil	8666 ta
	<b>Qurilish</b>	01.01.2019 yil	2659 ta
		01.01.2020 yil	3488 ta
	<b>Savdo</b>	01.01.2019 yil	8021 ta
		01.01.2020 yil	11243 ta
	<b>Tashish va saqlash</b>	01.01.2019 yil	1212 ta
		01.01.2020 yil	1520 ta
	<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	01.01.2019 yil	2811 ta
		01.01.2020 yil	3511 ta
	<b>Axborot va aloqa</b>	01.01.2019 yil	518 ta
		01.01.2020 yil	602 ta
	<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	01.01.2019 yil	585 ta
		01.01.2020 yil	680 ta
	<b>Boshqa turlar</b>	01.01.2019 yil	585 ta
		01.01.2020 yil	680 ta

## Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



Hududlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Zangiota (4947 ta), Qibray (4300 ta), Toshkent (3202 ta), Yuqorichirchiq (2400 ta) tumanlari va Angren shahar (2750 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Ohangaron (1105 ta), Piskent (1141 ta), Oqqo'rg'on tumanlari (1169 ta) hamda Ohangaron shahrida (1023 ta) korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 38523 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 7493 ta (24,1 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Zangiota (4278ta), Qibray (3569ta), Toshkent (2723ta), Yangiyo'l (2146ta), Yuqorichirchiq (2100ta) tumanlari va Angren (2214ta), Chirchiq (2195 ta) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Bo'ka (910 ta), Ohangaron (974 ta), Oqqo'rg'on (1024 ta), Piskent (1054 ta) Bekobod tumanlari (1090 ta) hamda Ohangaron (895 ta) va Nurafshon shahrida (1077 ta) korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.




## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)


2019-yil yanvar–dekabr oylarida 10037 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 84,0 %ga ko'pdir.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni o'rishdinamikasi, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Zangiota (1387 ta), Qibray (773 ta), Toshkent (707 ta), O'rtachirchiq (630 ta), Yangiyo'l (569 ta), Bo'stonliq (507 ta), Yuqorichirchiq (506 ta) tumanlari va Angren shahri (629 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Piskent (227ta), Bekobod (235ta), Ohangaron (254 ta), Quyichirchiq (295 ta) tumanlari hamda Yangiyo'l (294 ta) va Ohangaron (208 ta) shaharlarida korxonalar va tashkilotlarning tashkil etilish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

## 2019-yilning yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo‘yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo‘jaliklardan tashqari)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xo‘jaliklardan tashqari)





Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (3651 ta), sanoat (2043 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari (1054 ta), qurilish (892 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (858 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlash (336 ta), axborot va aloqa (125 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (117 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


## Tijorat korxonalar

(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

2020-yil 1-yanvar holatiga 32868 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar –23313 ta, xususiy korxonalar –6165 ta, oilaviy korxonalar –2820ta, unitar korxonalar – 294 ta, aksiyadorlik jamiyatlar – 50 ta va boshqalar 226 tani tashkil etgan.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining ulushi, foizda

(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)





## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 26554 tani tashkil etib, ulardan 23313 tasi yoki 87,8% faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 6520 taga yoki 32,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2019-yilning yanvar–dekabr oylarida 6974 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3035 taga ko'pdir.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning soni, birlikda

Iqtisodiy faoliyat turlar nomi	01.01.2020 yil		2019-yil yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	
<b>Jami</b>	<b>26554</b>	<b>23313</b>	<b>6974</b>
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	3801	3366	858
Sanoat	6115	5390	1420
Qurilish	2810	2462	816
Savdo	7253	6376	2483
Tashish va saqlash	1342	1178	305
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1839	1549	424
Axborot va aloqa	347	274	70
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	356	337	85
Boshqa turlari	2691	2381	513



## Xususiy korxonalar

Ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 7870 tani tashkil etib, ulardan 6165 tasi yoki 78,3 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 498 taga yoki 8,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2019-yilning yanvar–dekabr oylarida 1315 ta xususiy korxonalar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 636 taga ko'pdir.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xususiy korxonalarining soni, birlikda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.01.2020 yil		2019-yil yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	
<b>Jami</b>	<b>7870</b>	<b>6165</b>	<b>1315</b>
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	536	381	40
Sanoat	1326	1053	248
Qurilish	576	435	68
Savdo	3054	2422	666
Tashish va saqlash	130	95	26
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1016	786	151
Axborot va aloqa	188	133	28
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	173	159	12
Boshqa turlari	871	701	76



## Oilaviy korxonalar


Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 3104 tani tashkil etib, ulardan 2820 tasi yoki 90,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1211 taga yoki 75,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2019-yilning yanvar–dekabr oylarida 1337 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 929 taga ko'pdir.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oilaviy korxonalarining soni, birlikda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.01.2020 yil		2019-yil yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	
<b>Jami</b>	<b>3104</b>	<b>2820</b>	<b>1337</b>
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	375	316	128
Sanoat	1046	964	373
Qurilish	19	17	5
Savdo	815	763	489
Tashish va saqlash	25	21	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	636	570	283
Axborot va aloqa	14	11	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	14	13	4
Boshqa turlari	160	145	46

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining tumanlar bo'yicha taqsimoti, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 32602 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 28,3 % ga oshgan.

## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

Hududlar nomi	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	shundan:	
		kichik korxonalar	mikrofirmalar
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>32602</b>	<b>30492</b>	<b>2110</b>
Oqqo'rg'on	833	797	36
Ohangaron	791	746	45
Bekobod	868	832	36
Bo'stonliq	1453	1349	104
Bo'ka	707	667	40
Quyichirchiq	949	920	29
Zangiota	3818	3575	243
Yuqorichirchiq	1825	1685	140
Qibray	3046	2870	176
Parkent	1585	1526	59
Piskent	856	812	44
O'rtachirchiq	1894	1801	93
Chinoz	861	814	47
Yangiyo'l	1839	1736	103
Toshkent	2439	2273	166
Nurafshon sh.	875	816	59
Olmalik sh.	1461	1343	118
Angren sh.	1844	1682	162
Bekobod sh.	1021	956	65
Ohangaron sh.	771	716	55
Chirchiq sh.	1828	1649	179
Yangiyo'l sh.	1038	927	111




## 2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning umumiy sonidagi tumanlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

• Eng katta ulushi	• Eng kichik ulushi
Zangiota tumani 11,7 %	Nurafshon shahri 2,7 %
Qibray tumani 9,3 %	Bekobod tumani 2,7 %
Toshkent tumani 7,5 %	Chinoz tumani 2,6 %
O'rtachirchiq tumani 5,8 %	Piskent tumani 2,6 %
Angren shahri 5,7 %	Oqqo'rg'on tumani 2,6 %
Yangiyo'l tumani 5,6 %	Ohangaron tumani 2,4 %
Chirchiq shahri 5,6 %	Ohangaron shahri 2,4 %
Yuqorichirchiq tumani 5,6 %	Bo'ka tumani 2,2 %

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3818 tasi (11,7 %) Zangiota, 3046 tasi (9,3 %) Qibray, 2439 tasi (7,5 %) Toshkent, 1894 tasi (5,8 %) O'rtachirchiq, 1839 tasi (5,6 %) Yangiyo'l, 1825 tasi (5,6 %) Yuqorichirchiq tumanlari hamda 1844 tasi (5,7 %) Angren, 1828 tasi (5,6 %) Chirchiq shaharlari hissariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 32602 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 9576 ta (29,4 %) - savdo, 7455 ta (22,9 %) - sanoat, 4139 ta (12,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2960 ta (9,1 %) - qurilish, 2896 ta (8,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 1292 ta (4,0 %) - tashish va saqlash, 507 ta (1,6 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 427 ta (1,3 %) - axborot va aloqa, shuningdek 3350 tasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissariga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)*



2019-yil yanvar-dekabr oylarida 9671 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 4591 taga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlar Zangiota (1363 ta), Qibray (742 ta), Toshkent (692 ta), O'rtachirchiq (614 ta), Yangiyo'l (547 ta) tumanlari va Angren (610 ta) shahri hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Piskent (204 ta), Bekobod (229 ta), Ohangaron (246 ta) tumanlarida hamda Ohangaron (196 ta), Yangiyo'l (281 ta) shaharlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa ularning eng ko‘p soni savdoda –3649 ta, sanoatda -2039 ta, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida -1047 ta, qurilishda -892 ta hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda -857 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada -102 ta, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish-103 ta hamda tashish va saqlashda-336 ta tashkil etilgan.

## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 3104 tani tashkil etib, ulardan 2820 tasi yoki 90,9% faoliyat ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro‘yxatidan o‘tganlarning hamda faoliyat ko‘rsatayotganlarning umumiy soni o‘rtacha 72,7% ga oshganligini ta’kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalarni o‘tgan yilga nisbatan soni, birlikda




## Oilaviy korxonalarining soni to'g'risida ma'lumot (birlikda)

Hududlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>3104</b>	<b>2820</b>	<b>1337</b>
Oqqo'rg'on	79	77	67
Ohangaron	62	52	28
Bekobod	34	33	19
Bo'stonliq	222	199	129
Bo'ka	54	39	22
Quyichirchiq	18	18	9
Zangiota	361	319	97
Yuqorichirchiq	266	257	160
Qibray	194	180	69
Parkent	257	246	80
Piskent	32	28	11
O'rtachirchiq	299	294	176
Chinoz	104	92	77
Yangiyo'l	293	268	83
Toshkent	334	298	123
Nurafshon sh.	92	87	55
Olmaliq sh.	67	60	21
Angren sh.	126	95	37
Bekobod sh.	38	35	22
Ohangaron sh.	53	48	22
Chirchiq sh.	18	16	6
Yangiyo'l sh.	101	79	24

## Oilaviy korxonalarining o'sish dinamikasi, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda





Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 34,2 % yoki 964 tasi sanoat, 27,1 % yoki 763 tasi savdo, 20,2 % yoki 570 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11,2 % yoki 316 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 21 tasi tashish va saqlash, 0,6 % yoki 17 tasi qurilish, 0,5 % yoki 13 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,4 % yoki 11 tasi axborot va aloqa hamda 5,1 % yoki 145 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining ulushi, %




Agarda, 2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining sonini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi – sanoat hamda savdoda, eng kami esa – sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## 2019-yilning yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>1337</b>	<b>100,0</b>
Oqqo'rg'on	67	5,0
Ohangaron	28	2,1
Bekobod	19	1,4
Bo'stonliq	129	9,6
Bo'ka	22	1,6
Quyichirchiq	9	0,7
Zangiota	97	7,3
Yuqorichirchiq	160	12,0
Qibray	69	5,2
Parkent	80	6,0
Piskent	11	0,8
O'rtachirchiq	176	13,2
Chinoz	77	5,8
Yangiyo'l	83	6,2
Toshkent	123	9,2
Nurafshon sh.	55	4,1
Olmaliq sh.	21	1,6
Angren sh.	37	2,8
Bekobod sh.	22	1,6
Ohangaron sh.	22	1,6
Chirchiq sh.	6	0,4
Yangiyo'l sh.	24	1,8

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi O'rtachirchiq (176 ta), Yuqorichirchiq (160 ta), Bo'stonliq (129 ta) va Toshkent (123 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Quyichirchiq (9 ta), Piskent (11 ta), Bekobod (19 ta) tumanlari hamda Chirchiq (6 ta) shahrida ularning tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

## 2019-yil yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %




Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 36,6 % yoki 489 tasi savdo, 27,9 % yoki 373 tasi sanoat, 21,2 % yoki 283 tasi yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlari, 9,6 % yoki 128 tasi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari, 0,4 % yoki 5 tadan qurilish, tashish va saqlash, 0,3 % yoki 4 tadan sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, axborot va aloqa hamda 3,4 % yoki 46 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy capital ishtirokidagi korxonalar soni 1153 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 302 taga yoki 35,5 % ga o'sgan. Hududlar kesimida, xorijiy capital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Zangiota –142 ta (jamidagi ulushi 12,3 %), Qibray– 117 ta (10,1 %), Yuqorichirchiq – 91 ta (7,9 %) tumanlari va Angren– 81 ta (7,0 %) shahrida tashkil etilgan. Eng kam xorijiy capital ishtirokidagi korxonalar Bo'ka– 8 ta (0,7 %), Bekobod, Oqqo'rg'on– 9 tadan (0,8 %), Piskent– 14 ta (1,2 %) hamda Chinoz– 18 ta(1,6 %) tumanlarida tashkil etilgan.


### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 601 tasi qo'shma, 552 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, %



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1153</b>	<b>601</b>	<b>552</b>
Oqqo'rg'on	9	5	4
Ohangaron	67	31	36
Bekobod	9	8	1
Bo'stonliq	42	24	18
Bo'ka	8	4	4
Quyichirchiq	39	21	18
Zangiota	142	69	73
Yuqorichirchiq	91	50	41
Qibray	117	60	57
Parkent	22	11	11
Piskent	14	10	4
O'rtachirchiq	75	40	35
Chinoz	18	11	7
Yangiyo'l	69	26	43
Toshkent	70	40	30
Nurafshon sh.	45	23	22
Olmaliq sh.	38	13	25
Angren sh.	81	55	26
Bekobod sh.	20	14	6
Ohangaron sh.	42	18	24
Chirchiq sh.	79	51	28
Yangiyo'l sh.	56	17	39




## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar–dekabr oylarining yakunlari bo‘yicha xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 322 tani tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 69 taga ko‘paygan.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Zangiota (41 ta), Qibray (31 ta), O‘rtachirchiq (29 ta), Yuqorichirchiq (24 ta) va Ohangaron (23 ta) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Piskent, Oqqo‘rg‘on (1 tadan), Bekobod, Bo‘ka, Chinoz tumanlari va Ohangaron (3 tadan) shahri hissalariga to‘g‘ri keladi.

## 2019-yilning yanvar–dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar davlatlar kesimidagi soni, birlikda




Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlarining kapitali ishtirokida 101 ta, Turkiya Respublikasi 45 ta, Rossiya Federatsiyasi 42 ta, Qozog‘iston Respublikasi 38 ta, Janubiy Koreya Respublikasi 19 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 77 ta korxonalar yangi tashkil etilgan. Shuningdek, 2019-yilda Afg‘oniston Islom Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo‘shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 162 tasi sanoat, 67 tasi savdo, 32 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklariva 61 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar–dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining yillar kesimida o'sish dinamikasi, birlikda



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi  
 Statistika registrlarini yuritish bo'limi boshlig'i  
 Xasan Igamberdiyev  
 Tel.:71-230-86-84